

JADIDCHILIK HARAKATINING TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARI

Mirzoyeva Nigora Shavkatjonovna

O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika

instituti o'qituvchisi n_mirzoyeva@gmail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada jadid ajdodlarimizning ta'lism-tarbiya sohasida qo'shgan hissalari, islohotlari, yaratgan darsliklari, o'quvchilarni bilim va ma'naviyatini oshirish uchun tanlangan ta'lism texnologiyalari, avvalgi o'qitish tizimidan "Yangi usul" maktablarining ustun taraflari, diniy va dunyoviy fanlarni sinflar kesimida o'qitilishi, ushbu fanlarni birgalikda o'qitilganda erishilgan yutuqlari haqida keltirib o'tilgan.

Kalit so`zlar: Jadidchilik harakati, ma`rifatparvarlik, Mahmudxo`ja Behbudiy, usuli jadid, Behbudiy asarlari, "Padarkush", "Behbudiya kutubxonasi", Ubaydulla, Asadullaxo`jayev, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, "Risolayi asbobi savod" ("Savod chiqarish kitobi", "Risolayi jug`rofiyai umroniy" ("Aholi geografiyasiga kirish", "Muntahabi jug`rofiyayi umumiy" ("Qisqacha umumiy geografiya", "Kitobat ultafol" ("Bolalar xati"), "Amaliyoti islom", "Tarixi islom", ta'lism, tarbiya, ma'naviyat, yoshlar tarbiyasi, dars texnologiyalari, millat ravnaqi.

Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qirimda vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan O'rta Osiyoda tarqaldi. Jadidchilik avvaliga madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o`rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. Turkistonda bu harakatning ko`zga ko`ringan vakillaridan Mahmudxo`ja Behbudiy, Ubaydulla, Asadullaxo`jayev, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Toshpo`latbek Norbutayev, Xoji Muin, Abduqodir Shakuriy, Nosirxonto`ra Kamolxonto`rayev, Obidjon Mahmudov, Ashurali Zohiriy, Eshonxo`ja Xonxo`jayev, Is`honxonto`ra Ibrat; Buxoroda-Sadriddin Ayniy, Fayzullo Xo`jayev, Abdurauf Fitrat,

Musa Saidjonov, Abdulvohid Burxonov, Usmon Xo`jayev, Mirkomil Burxonov, Muhitdin Rafoat, Muhitdin Mansurov, Muxtor Saidjonov, Abduqodir Muhitdinov va boshqalar; Xivada–Bobooxun Salimov, Polvonniyoz Xoji Yusupov, Avaz O`tar, Husayn Matmurodov, Nazar Sholiqorov, Otajon Abdalov, Xudoybergan Devonov, Muhammadrasul Mirzo, Matyoqub Pozachi, Otajon Sadayev, Bekjon Raximov, Muhammad Devonzoda va boshqalar nomlarini alohida tilga olish zarur. Bular nafaqat xalq ommasining ma`rifatli qilishga, balki mustaqillik g`oyalarini shakllantirishda ham katta hissa qo`shdilar. Ular o`z bilimlarini millat ravnaqi, jamiyat rivoji yo`lida sarflashga intildi, o`rni kelganda mablag`ini ham ayamadi. Adib, publisist, pedagog, olim, din va jamoat arbobi Mahmudxo`ja Behbudiy Turkistonligi jadidchilik harakatining asoschilaridan va yetakchilaridan biri edi. U “ma`rifatning, maorif ishlarining faqatgina nazariyotchisi bo`lib qolmay, balki o`lka maorifi rivojida amaliy tomondan ham jonbozlik ko`rsatdi”. Shuningdek, Behbudiy quyi va yuqori maktabning isloh qilinishini millatning isloh etilishiga qiyosladi va uni umummilliylig`ga deb bildi. Millatga “o`qumoq, o`qutmoq kerakdur. Bolalarga otalardan ilmi diniy va ilmi zamoniy meros qolsun”, - deya murojaat qilib, o`zi ilgari surgan milliy g`oyani barcha targ`ib qilishi zarurligini ta`kidladi. Behbudiyning umummilliylig`ga targ`iboti uchun milliy matbuot kerak edi. Jadidlar chiqara boshlagan gazeta-jurnallar rosmasiga fikr almashish, ilg`or g`oya va fikrlarni targ`ib etish, bahslashish maydoniga aylangan, demokratik qadriyatlarni o`zida aks ettirgan, fikrlar qarama-qarshiligini ko`tara oladigan, ijtimoiy-siyosiy mavzulardagi tanqidiy maqolalarni yoritadigan matbuot nashrlari edi. Masalan, Mahmudxo`ja Behbudiy muharirlik qilgan “Oyina” jurnali ma`rifat va madaniyat tarqatish maqsadida millat va uning haq-huquqlariga, tarixiga, til va adabiyot masalalariga, dunyodagi ahvolga oid turlituman maqolalarni chop etdi. Shuningdek, ayni yo`nalishlardagi bahslar uchun minbar vazifasini o`tadi.

Ma`rifatparvarlar tomonidan yaratilgan o`lmas asarlar orqali oilada axloqiy tarbiyani to`g`ri yo`lga qo`yilgandagina shaxsga xos quyidagi salbiy odatlar: odobsizlik, manmanlik, kibrilik, ko`ngli qoralik, dangosalik, maqtanchoqlik, xasislik, sotqinlik, chaqimchilik, vatanfurushlik, sabrsizlik, bilimsizlik, e`tiqodsizlik,adolatsizlik,

yolg`onchilik, qahri qattiqlik, berahmlik, kattalarni hurmat qilmaslik, kichiklarga izzat ko`rsatmaslik, intizomsizlik kabi axloqiy sifatlarni shakllanishining oldi olinishiga erishilishi mumkinligi haqida bilib olish mumkin. Oila tarbiyasi bu yuqarida ta`kidlab o`tilganidek, ota-onalar yoki shaxs kamoloti uchun mas`ul shaxslar tomonidan tashkil etiluvchi hamda farzandlarini har tomonlama yetuk, sog`lom, bilimli etib tarbiyalashga yo`naltirilgan pedagogik jarayon. Shu o`rinda aytish joizki, haqiqiy oila bu axloq, xushmuomalalik, mehnatsevarlik asosida qurilgan bo`lishi insonlar o`rtasidagi munosabat va muloqotlarda o`ta muhim va shaxsning fe`l-atvori, yurish-turishida alohida kasb etadi. Ushbu asarlarni o`qish orqali biz bu masalalar haqida ko`proq bilib olamiz. Mahmudxo`ja Behbudiy milliy g`oyasining yana bir targ`ibot quroli, bu - adabiyot edi. Jadidlar Navoiy, Fuzuliy, Sa`diy singari buyuk zotlar hayoti va ijodini chuqur bilishgani sababli adabiyotni xalqqa yaqinlashtirishga, uning tilida yozishga intildilar va bu ishni uddaladilar. Ular tomonidan ko`plab asarlar yaratildi.

Behbudiy haj safarida bo`lgan chog`ida Arabiston, Misr, Turkiyani kezib chiqqan. Sayohat davomida yangi maktab (usuli jadid) ochish fikri mustahkamlanib bordi. Samarqand yaqinidagi Halvoysi qishlog`ida Ajziy, Rajabaminda Abdulqodir Shakuriylar bilan hamkorlikda yangi maktab ochgan. Behbudiy Qozon va Ufaga borib (1903-04), u yerdagи yangi usul maktablari bilan tanishadi, tatar ziyolilari bilan aloqani yo`lga qo`yadi. Yangi maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. “Risolayi asbobi savod” (“Savod chiqarish kitobi” 1904), “Risolayi jug`rofiyai umroniy” (“Aholi geografiyasiga kirish”, 1905), “Muntahabi jug`rofiyayi umumiy” (“Qisqacha umumiy geografiya”, 1906), “Kitobat ul-atfol” (“Bolalar xati”, 1908), “Amaliyoti islom” (1908), “Tarixi islom” (1909) kabi kitoblar chop ettirgan. Jadidchilik harakatining yirik namoyondasi, publisist, noshir Mahmudxo`ja Behbudiy ilm-fan, xalqning ma`rifatli bo`lishi uchun, demokratik va farovon davlat barpo etish uchun umri davomida kurash olib bordi. Albatta, kurash deganda faqat quroq yordamida jang qilish emas, balki jaholatga qarshi ma`rifat orqali kurashish ham tushuniladi. Mahmudxo`ja Behbudiy ham mustamlaka zulmida bo`lgan xalqi va vatanini ma`rifatli qilish, ularni ilm olishlari uchun nafaqat yangi usul maktablari, balki asarlar, maqolalar, drammalar nashr ettirib, gazeta va jurnallarga asos soldi. Shunday

asarlar qatoriga “Tarixi islom” (1909), “Risolai asbobi savod” (“Savod chiqarish kitobi”, 1904), “Kitobat ul-atfol” (“Bolalar xati”, 1908), “Risolai jug`rofiyai umroniy” (“Aholi geografiyasiga kirish”, 1905), “Muntaxabi jug`rofiyai umumiy” (“Qisqacha umumiyy geografiyasi”, 1906), “Amaliyoti islom” (1908) “Muxtasari jug`rofiyai Rusiy” (“Rossiyaning qisqacha geografiyasi”) kabilarni ko`rishimiz mumkin. Yoshlarning ilmli bo`lishi uchun jadid maktablarga katta e`tibor bergan Mahmudxo`ja dastlab savod chiqarish uchun asar yozdi. “Рисолай асбоби савод” (“Savod chiqarish kitobi”) nomida nashr ettirilgan bu asar tojik tilida bo`lgan. Nashr ettirishdan oldin Behbudiy buni Shakuriy mакtabida bir yil sinovdan o`tkazadi. Bir necha o`zgartirishlardan so`ng nashr ettiriladi. Asarning muqaddima qismida Behbudiy bu asar orqali o`g`li Ma`sudxo`jani ham savodini chiqargani, shuningdek, Shakuriy ham o`quvchilarning savodlarini chiqarishda ushbu asardan foydalanligi va bu asar orqali savod chiqarish osonligini qayd etib o`tadi. Bu asar hozirgi kunda ham savod chiqarish usullarini o`rganish mumkin. Asar 1920-yillarga qadar Buxoro va Samarqandda asosiy o`quv qo`llanma sifatida foydalanilgan.

Behbudiyning butun dunyoda tanilgan asarlardan yana biri bu 1911-yilda yozilgan “Padarkush” dramasi hisoblanadi. Bu birinchi o`zbek dramasi edi. Shu bois o`zbek dramaurgiyasining asoschisi Behbudiy hisoblanadi. Mazkur asar mazmunan sodda bo`lib, o`qimagan, johil va nodon bolaning o`z otasini o`ldirgani haqida yozilgan va shu sabab “Padarkush” nom olingan. Behbudiy bu asar janrini “milliy fofia” deb atagan. Shu bilan birgalikda “Padarkush” dramasi orqali o`zbek teatriga tamal toshi qo`yildi. Bu asarda u ilmsizlik, jaholatning qanday fojealarga sabab bo`lishi mumkinligi haqida aytib o`tadi. Drama va undagi obrazlar: boy, ziyoli, domla, boyning o`g`li Toshmurod hamda uning do`stlari orqali adib oilada axloqiy tarbiyani naqadar katta ekanini ko`rsatib bergen. Asarda adib ilmsizlikning oxiri qanday tugashini sodda qilib ko`rsatilgan.

Turkiston jadidlari orasida katta shuhrat qozongan va ularning ko`zga ko`ringan vakili, adabiy tanqidchilik mакtabining shakllanishida katta xizmat qilgan Vadud Mahmudning ta`rificha “Mahmudxo`janing oti Turkiston tarixida ziynatlik mumtoz o`run olishga munosib bir otdir”. Mahmudxo`ja Behbudiy Turkistonda jadidchilik harakatining

rahbari sifatida xalq uchun manfaati bor amaliy ishlar bilan qizg`in shug`ullandi: jadid maktablari tashkil etishda bosh-qosh bo`lib, teatr san`atiga asos solgan, gazeta-jurnal chop qilib, nashriyot hamda kutubxona tashkil etgan. U siyosiy, ma`rifiy-madaniy, iqtisodiy-ijtimoiy sohalarda birdek xizmat qilib kelgan.

Ayniqsa, “Behbudiy kutubxonasi” Behbudiyning millat taraqqiysi uchun boshlab bergen xayrli ishlari qatorida turadi. Samarqanddagi dastlabki mahalliy gazeta va milliy jurnalning noshiri, birinchi milliy drama muallifi, Turkistonning usuli jadid maktablarining, B.Qosimov ta`kidlaganidek, “birinchi nazariyotchi va amaliyotchisi”, eng birinchi darsliklar muallifi bo`lgan Behbudiy kutubxona tashkil qilishda ham birinchilardan bo`ldi.

Ushbu kutubxona Samarqand gubernatoridan rasman ruxsat olinib, 1908-yil 11-sentabr kuni shaharning “Yangi rasta” qismida ochilgan. Lekin kutubxona ochilishi xabari biroz avval paydo bo`lgan edi. Bu haqda “Turkiston viloyatining gazeti” xabar qilgan edi. Kutubxonaning barcha rasmiy masalalari 27 bobdan iborat dasturda belgilab berildi (Turkiston viloyatining gazeti, 1908-yil, 27-son). O’sha davrda kutubxonaga a`zolik badali yiliga 3 so`m miqdorda tayinlandi. Kutubxonaning asosiy maqsadi mahalliy musulmon yoshlari, madrasa talabalarining zamonaviy ilmlarga bo`lgan intilishlarini qo`llab-quvvatlashga yo`naltirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Zaynobidin Abdurashidov. Jadidlar. Mahmudxo`ja Behbudiy. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.
2. Qosimov B. Maslakdoshlar. – Toshkent: Sharq, 1994.
3. Pedagogik mahorat. Darslik / A. A. Xoliqov; O`zR Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi. - T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2011.
4. Jadidlar. Mahmudxo`ja Behbudiy [Matn]: risola/Z.Abdirashidov. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 156 b.
5. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi

akademiyasi O‘zbekistonning yangi tarixi Markazi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti, 1999.

6. «Oyna» jurnali, 1914 -yil , 29-son., 550-553-betlar.